

2024-2025-o'quv yilida umumta'lim maktabi 5-sinf o'quvchilarining IV chorakda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun BSB topshiriqlari va mezonlari

IV chorak 4-BSB

Jami: [25 ball]

1-topshiriq.

Qidiruv tizimida ma'lumot qidirishning ikkita usuli haqida yozib bering.

2-topshiriq.

Veb brauzer deganda nimani tushunasiz? Uning mashhur turlarini va asosiy qismlarini misollar bilan yozib bering.

3-topshiriq.

Elektron pochtdan foydalanganda email akkauntga ega bo'lishingiz bilan email manzilga ham ega bo'lasiz. Email manzili nima va u qanday hosil qilinadi? Uning asosiy qismlarini va ularning vazifalarini yozib bering.

4-topshiriq.

Elektron pochtda xabarlar turiga qarab papkalarda saqlanadi. Sizga 1-ustunda papka nomi berilgan. 2-ustunda shu papkada qanday turdagi xatlar saqlanishini yozib bering.

Papka nomi	Foydalanish ko'lam
Drafts	
Bin/Trash	

5-topshiriq.

Sevimli mashg'ulotingiz to'g'risida do'stingizga elektron xat yozing.

- Xatingizda **sevimli** mashg'ulotingiz bilan qanday shug'ullanishni yoqtirishingiz haqida 3 ta gapdan iborat kichik hikoya yozing.
- Xabaringizga hikoyaga mos sarlavha qo'ying.
- Do'stlaringizni birining manzilini qo'shing.
- Xatdagi "Cc" maydoniga o'qituvchingiz manzilini kiriting.

Baholash mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball	Baholash mezonlari
V bob. Qidirish tizimlarida ishlash	Qidiruv tizimlarida ishlashni boshlash. Qidiruv tizimlari.	Qidiruv tizimlaridan foydalana oladi; Qidirishda kalit so'zlardan samarali foydalana oladi;	1-topshiriq	3 ball	1) ma'lumot qidirishning ikkita usulini to'g'ri yozib bera olsa 3 ball ; 2) qisman to'g'ri yozilgan javob uchun 1-2 ball ; 3) qidiruv tizimidan foydalana olmasa 0 ball ;
	Veb-brauzerlar.	Veb-brauzerning asosiy funksiyalaridan foydalana oladi;	2-topshiriq	6 ball	1) v eb brauzer haqida to'g'ri yozib bera olsa 2 ball , turlarini to'g'ri yozib bera olsa 2 ball , asosiy qismlarini to'g'ri yozib bera olsa 2 ball , jami 6 ball ; 2) topshiriqning qisman bajarilgan bandi uchun 1 ball dan; 3) umuman bajarilmagan topshiriq bandi uchun 0 ball ;
VI bob. Elektron pochta da ishlash	Elektron pochta da ishlash. Elektron pochta. Yangi elektron xat yozish.	Elektron pochta da ishlay oladi; Elektron pochta xavfsizlik qoidalarini amalda qo'llay oladi;	3-topshiriq	5 ball	1) email manzili haqida yoza olsa 2 ball , har bitta to'g'ri yozilgan uchta asosiy qism uchun 1 ball dan, jami 5 ball ; 2) qisman to'g'ri yozilgan bo'lsa 1-3 ball ; 3) email manzil to'g'risida hech qanday ma'lumot yozilmagan bo'lsa 0 ball ;

	Qabul qiluvchining manzilini kiritish. Xatni o'qish va unga javob qaytarish.	Elektron pochta papkalar bilan ishlay oladi; Elektron pochta xabar turiga qarab qaysi papkada saqlanishini aniqlay oladi;	4-topshiriq	4 ball	1) to'g'ri yozilgan foydalanish ko'lami uchun 2 ball dan, jami 4 ball ; 2) foydalanish ko'lami qisman to'g'ri bo'lsa 1-2 ball ; 3) papkalar to'g'risida hech qanday ma'lumot yozilmagan bo'lsa 0 ball ;
	Elektron pochta xabarlarini uzatish va formatlash	Elektron pochta xabar yubora oladi; "Carbon copy" (aniq nusxasi) (Cc) maydoni bilan ishlay oladi;	5-topshiriq	7 ball	1) to'g'ri bajarilgan a,b,c bandlari uchun 2 ball dan, d band uchun 1 ball , jami 7 ball ; 2) qisman bajarilgan a,b,c bandlari uchun 1 ball dan; 3) umuman bajarilmagan topshiriq bandlari uchun 0 ball ;
Jami				25 ball	

Izoh: Ushbu materiallar o'qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma'lumotni beradi.

O'qituvchi yuqoridagi ma'lumotlar asosida BSB topshiriqlarning turli variantlarini shakllantirishi mumkin.